RAQAMLI AVLOD VAKILLARIGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Nishonov Nodir Alimjanovich – Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti
E-mail: nodirbeknishonov@gmail.com

Tadqiqotchilar tomonidan SPOD dunyosidan (Steady – bapqaror; Predictable – oldindan aytib bo'ladigan; Ordinary – oddiy; Definite – aniq) VUCA dunyosiga (Volatility – o'zgapuvchanlik; Uncertainty – noaniqlik; Complexity – mupakkablik; Ambiguity –ikkilanish, mavhumlik) o'tilayotgani haqida ko'p aytilmoqda [1]. VUCA konsepsiyaci bipinchi bo'lib, AQSH hapbiylari tomonidan shakllantirildi va unga muvofiq strategiya va taktikani ishlab chiqa boshladi [2]. Mazkur atama 1990 yillapda ishlab chiqapish kopxonalarining boshqarish talablari shaklida amaliyotga tatbiq etilgan. Keyinchalik eca ta'limni strategik boshqarishda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. VUCA atamasining mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim tizimidagi tendensiyalar, islohotlar quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishni taqozo etmoqda: Volatility (o'zgapuvchanlik). Biz tinimsiz o'zgarib bopayotgan, mustahkam bo'lmagan va o'zgarishlarni oldindan ko'rib bo'lmaydigan dunyoda yashamoqdamiz. Voqea va hodisalar kutilmaganda tez sodir bo'lmoqda, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashtirish opepativlikni talab etadi; Uncertainty (noaniqlik). Dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni prognoz qilish qiyinlashib, kelajakni rejalashtirishga doip prognozlar o'z dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Investitsiya, ilmiy ishlanmalar va rivojlanishning o'sishini rejalashtirish deyarli imkonsiz bo'lib bormoqda; Complexity (murakkablik). Hozirgi dunyo har qachongidan murakkab bo'lib, muammolar va ularning ta'sipini tushunish esa qiyinlashib bopmoqda. Muammolarni hal etishda turli chalkashliklar, hal etishda esa yagona to'g'ri yo'lni topish qiyinchilik tug'dirmoqda; Ambiguity (ikkilanish, mavhumlik). Hozirgi dunyoda yagona to'g'ri qaror topish murakkab va eng to'g'ri yo'l amaliyot deb ko'riladi. Turli tizimlardagi talablar, vazifalar bip-biriga qarama-qarshi va bu eca shaxsiy qadriyatlar tizimini sinovdan o'tkazmoqda. Qarorlar qabul qilish hap qachongidan ko'ra ko'proq bilim, mahorat, jasorat, javobgarlik talab qilib kelmoqda.

Google kompaniyasining rahbarlaridan bo'lgan Erik Shmidning so'zlariga ko'ra biz har 2 kunda sivilizatsiya paydo bo'lgandan to 2003 yilgacha bo'lgan davr oralig'idagi axborot bilan teng axborot yaratmoqdamiz[3]. Bu o'z navbatida idrok jarayonida kuchli o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Chunki informatsiyaning ko'pligi idrok qilish jarayonida o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni topishga avtomatlashadi. Tarixdan bizga yaxshi ma'lumki ahborot oqimi kitoblar qo'lyozmalar ko'rinishida juda qimmat baholangan. Faqatgina o'ziga to'q honadonlargina bunday ziynatni o'ziga ep bila olgan. Hozirda esa nafaqat qog'oz balkim elektron kitoblar, virtual olamlar yaratilmoqdakim insonning idroki bu yangiliklarga qay darajada tayyor degan savol yuzaga kelmoqda.

1991-yilda mashhur iqtisodchi va demografiya mutaxassisi Nil Xou va tarixchi Vilyam Shtraus bir-biridan mustaqil ravishda "avlodlar nazariyasi" deb atalmish nazariyani yaratdilar. Nazariya mualliflari XX asrga alohida e'tibor berib, Amerika Qo'shma Shtatlarining butun tarixini tahlil qildilar va ko'pchilik odamlar o'xshash qadriyatlarga ega bo'lgan muayyan davrlar borligini aniqladilar. Bunday davrlarni ular ijtimoiy avlodlar davri deb atalgan [4]. Rossiya va MDH davlatlari uchun 2002 yilda Evgeniy Shamis va Evgeniy Nikonov boshchiligida, "RuGenerations" tadqiqot loyihasi orqali avlodlar nazariyasi modifikatsiya qilindi [5]

Avlodlar nazariyasi - bu tarixdagi vaqt davrlarining tavsifi va ular bilan bog'liq xarakterli xususiyatlar, shuningdek, ma'lum xronologik davrlarda tug'ilgan odamlarning qarashlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Nazariyani ahamiyati shunda ediki, ushbu nazariya kelajak avlod vakillarini o`ziga hos ta'limiy, psixologik, iqtisodiy jabhalarda anglab yetishda qo'l kelar edi.

N.Xou va V.Shtrauss avlodning 20-25 yil davomiylikka ega bo'lgan 4 ta sikli bor deb faraz qilganlar. Ushbu qiymatlarni qo'shib, biz o'rtacha zamonaviy insonning umri 80-90 yil davomiyligini olamiz. Ular asosiy avlodlar arxetiplari (avliyolar, ko'chmanchilar, qahramonlar va rassomlar) taklif qildilar va bugungi kunda olimlar tomonidan arxetiplar yangicha tasniflandi GI avlod, Silent avlod (P avlodi), Baby Boomer avlodi (BB), X avlod, Y avlodi va Z avlodi), shuningdek, "chegarachilar" turli avlodlarning qadriyatlarini o'zlarida namoyon qilgan avlodlar. Har bir avlodning o'ziga hos hususiyatlari mavjud bo'lib o'sha davrdagina namoyon bo'ladi. Hususan, "Avliyolar" yangi yorqin kelajak yaratishga qaratilgan; Ko'chmanchilarning asosiy vazifasi qurilgan tizimning haqiqatlarini buzish va uning axloqiy qadriyatlarini rad etish; qahramonlar mavjud qadriyatlarni himoya qilsa, rassomlar esa mavjud tizimga moslashadi .

Nazariya mualliflari global miqyosda bir nechta avlodlarni aniqladilar:

- Silent avlod (1920-1940);
- Bumer avlodi (1940-1960);
- X avlod (1960-1980);
- Y avlodi (1980-2000);
- Z avlodi (2000-2020).

Tug'ilgan sanalar avlodlarning asl nazariyasiga ko'ra berilgan, ammo ayrim mamlakatlarda ma'lum mahalliy voqealar (masalan, Sovet Ittifoqidagi temir parda, Afrika davlatlarida aparteid va boshqalar) tufayli ular o'zgarishi va o'zgarishi mumkin.

Bugungi kun avlodi bo`lgan Z avlod (2000-2024) O'smirlarning yarmidan ko'pi hayot qo'rqinchli deb hisoblashadi. Chunki ularning qisqa umri 11-sentabr, banklarning qulashi, global moliyaviy inqiroz va Yaqin Sharq urushlarini o'z ichiga olgan. Z avlodi Internet, YouTube, mobil telefonlar, SMS va MP3 pleerlar kabi narsalar tufayli bog'langan.

Hozirgi vaqtda Z avlodining sinonimi sifatida avlod mavzulari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar "Raqamli avlod", "Raqamli aborigenlar", "Tarmoq avlodi", "Phygital avlod" (figital) atamasini qo'llashni boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, bu nom yangi avlodning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq ifodalaydi. Bu butunjahon Internet - Web 3.0 rivojlanishining hozirgi bosqichida raqamli jamiyat innovatsiyalarini aks ettiradi. Yangi Internetning yangi sifat xususiyatlaridan biri bu raqamli va jismoniy olamlarning o'zaro ta'siridir. "Bugun inson uchun raqamli va jismoniy dunyo o'rtasida chegara yo'q: biz "jismoniy" hayotimizni boshqarish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanamiz va shu bilan birga o'zimiz ham raqamli dunyoga (jumladan, ommaviy axborot vositalariga) faol ta'sir qilamiz", dedi dunyo bo'ylab birinchilardan bo'lib figital atamasini ishlatgan K.Vale, Momentum agentligi bosh direktori[6].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra qisqa muddatli tafakkurning hajmi so'ngi avlod vakillarida ancha kamaygan. Millerning 7+/-2 miqdoridagi informatsiyani eslab qolish miqdorini olimlar mavjud real olamda 3 taga ko'pi bilan 4 taga tushurishdi [7, b 185]. Z avlodining kognitiv sohasining xususiyati klipga o'xshash fikrlash hususiyatiga ega.

"Klip tafakkuri" atamasi F.I.Girenok tomonidan kiritilgan[8, b 87]. Klipli fikrlash ixchamligi bilan ajralib turadi: agar siz izoh yoki xulosani o'qishingiz mumkin bo'lsa, "Urush va tinchlik"ni to'liq o'qish shart emas. Uzoq matn zerikarli, ma'ruza zerikarli - sizga tezislar va xulosalar kerak. Klipli fikrlash deganda ob'ektlarning ko'plab turli xususiyatlarini aks ettirish jarayoni tushuniladi, ya'ni mantiqsizlik, kiruvchi ma'lumotlarning har xilligi, qismlar, ma'lumotlarning parchalari o'rtasida almashinishning yuqori tezligi, atrofdagi dunyoni idrok etishning yaxlit tasvirining yo'qligi, ular orasidagi aloqalarni hisobga olmagan holda, axborot oqimining parchalanishi bilan tavsiflanadi.

"Avlodlar va o'rganish uslublari" kitobining muallifi J.Koats Z avlodi bilan ishlaydigan o'qituvchilar uchun quyidagi "maslahatlarni" taqdim etadi.

Ushbu avlod vakillari "Bu menga nima uchun kerak?" deb so'rashadi va shu nuqtai nazardan, ular uchun ta'lim ma'nosiz ko'rinadi. Misol uchun agar Vikipediya mavjud bo'lsa,

nima uchun klassik muallifning tug'ilgan va vafot etgan sanalarini (uning tarjimai holi, asarlari) bilishim kerak? Bir necha marta bosish va biz istagan ma'lumotlar ekranda paydo bo'ladi deya fikrlashadi. Yoshlarga shunchaki yod olish kerak emasligini balki, muallifning asari bilan tanishish, uni tahlil qilish va qayta hikoya qilish xayoliy fikrlash, notiqlik mahorati, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati, so'z boyligini kengaytirish ekanligini tushuntirish zarur.

Raqobat o'rniga hamkorlik. Zetalar qanday hamkorlik qilishni biladi va yaxshi ko'radi Umuman olganda, samarali o'zaro ta'sirning ahamiyati ular uchun ravshan va baholashlar buning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, Zetlar rag'batlantirish va mukofotlarga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishadi va bu ularning eng nozik joyi. Maqtov kerak lekin ortiqcha maqtamang. Ularga izlash erkinligini bering, lekin ularni o'z holiga tashlab qo'ymang. Zetlar amalga oshmayotgan narsaga tezda qiziqishni yo'qotadilar[9, b 121].

Globallashuv jarayoni bugungi kunda zamon talablariga "labbay" deb javob bera oladigan malakali kadrlarni talab qilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 25-dekabr O'zbekiston yoshlari forumiga tashrif buyurib, yoshlar bilan uchpashuv japayonida bugungi yoshlar xalq kelajagining katta kuchi ekanligiga ishonch bildirib "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlapning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanpapvap yoshlarimiz faol ishtipok etib, munosib hissa qo'shadilar"[10], deb nutq so'zladilar. Yuqoridagi ma'lumotlardan hulosa qiladigan bo'lsak bugungi kun avlodlari ta'lim-tarbiya berishda o'ziga hos uslubni talab etadi. Shunga monand holatda ta'lim berish bugungi kun o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro'yxati:

1. https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/19/individual-oriented-education.
2. Adaptatsiya novichkov: pabotayushiye inctpumenti v mipe vuca. https://vc.ru/hr/195386-adaptaciya-novichkov-rabotayushchie-instrumenty-v-mire-vuca.
3. M.G.Sigler, "Eric Schmidt: Every 2 Days We Create As Much Information As We Did Up To 2003", TechCrunch.
4. http://inosmi.ru/world/ 20130611/209925956.html.
5. Teoriya pokoleniy. - Rezhim dostupa: http://rugenerations.su (data obrashcheniya 21.10.2020)].
6. Weil CH. Pugayet li menya to, chto izdateli stanovyatsya nashimi konkurentami? A kak eto mozhet ne pugat'?! // Kommersant" Sekret Firmy. 2010. №6. URL: https://www.kommersant.ru/doc/1374408 (access date: 14.09.2018). (In Russian). C 50.
7. Галло К., Презентация в стиле TED: 9 приемов лучших в мире выступлений. М.:Альпина Паблишер, 2015 г.- С 185.
8. Гиренок, Ф. И. Метафизика пата. М. : Лабиринт.1995 г. - С 87
9. Коатс, Дж. Поколения и стили обучения : пер. с англ. Л. Е. Колбачева. М. : Межгосударственная ассоциация последипломного образования. 2011 г. - С 121.
10. https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/